

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

SHARIPOVA SABOXON ABDILLAJONOVNA

**MEDIADISKURSDAGI NEOLOGIZMLARNING
LEKSIK-SEMANTIK VA PRAGMATIK XUSUSIYATLARI**

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Philological Sciences**

Sharipova Saboxon Abdillajonovna

Mediadiskursda neologizmlarning leksik-semantik va pragmatik xususiyatlari 3

Шарипова Сабохон Абдиллажоновна

Лексико-семантические и прагматические особенности неологизмов
в медиадискурсе 25

Sharipova Saboxon Abdillajonovna

Lexical-semantic and pragmatic features of neologisms in media discourse 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 54

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

SHARIPOVA SABOXON ABDILLAJONOVNA

**MEDIADISKURSDAGI NEOLOGIZMLARNING LEKSIK-SEMANTIK
VA PRAGMATIK XUSUSIYATLARI**

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Fil4530 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.namdu.uz) hamda “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qazaqova Nozima Abdulboqiyevna,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Sultonova Shoxista Muxammadjanovna,
filologiya fanlari doktori, professor

Nabiyeva Dilora Abduxamidovna,
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “___” ___soat ___dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 160119, Namangan shahri, Boburshoh ko‘chasi, 161-uy. Tel.: (+99869) 227-06-12; Tel.: (998-69) 228-85-01, Faks: 228-85-02. Web-sayt: www.namdu.uz, e-mail: info@namdu.uz faks: (+99869) 227-07-61; e-mail: info@namdu.uz.)

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universiteti axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____- raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 160107, Namangan sh., Boburshoh ko‘cha 161. Tel.: (998-69) 228-85-01.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” ___kuni tarqatildi.
(2025-yil “___” ___dagi ___ raqamli reestr bayonnomasi).

N.M.Uluqov,

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor

I.O‘.Darvishov,

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

F.I.Karimova,

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d. (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida neologizmlarning shakllanishi, tasnifi va tavsifi borasida bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lishiga qaramay, so'nggi o'n yilda axborot texnologiyalarning o'ta jadal taraqqiy etishi, XXI asrning dastlabki choragida insoniyat hayotida yuz bergan global o'zgarishlar, pandemiya davri, ijtimoiy-siyosiy sohadagi yangilanishlar, ilm-fanning rivojlanishidagi integratsion xususiyatlar natijasida dunyodagi ko'plab tillarda "neologik portlash" effektining sodir bo'lganligi yangi so'z va iboralarning lisoniy xususiyatlari, hosil bo'lish modellari hamda pragmatik xususiyatlarining qayta tahlil qilinishi zarurligini ko'rsatmoqda. Globallashuv, fanlar integratsiyasi jarayonlari nafaqat leksikologiya sohasini, balki sotsiolingvistika, psixolingvistika, kognitiv lingvistika, kompyuter lingvistikasi, leksikografiya, lingvodidaktika kabi sohalarni ham o'zining muhim tekshiruv obyektiga aylantirmoqda.

Dunyo tilshunosligida neologiya sohasi zamonaviy tilshunoslikning zaruriy sohaslaridan biri sifatida taraqqiy etmoqda. Mazkur soha yangi leksik birliklarning paydo bo'lishi hamda ularning doimiy leksikaga o'tish jarayonini o'rganuvchi soha sifatida ahamiyatlidir. Neologizmlarning lisoniy xususiyatlarini tizimli asoslash, bunday birliklar lingvokreativlik va til dinamikasini o'zida mujassam etishini tahlil qilish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayni davrda ijtimoiy-maishiy hayot, siyosiy jarayonlar, axborot texnologiyalari, shaxs xususiyatlari, ilm-fanning turli sohalari bilan aloqador yangi lug'aviy birliklarning leksik-semantik tavsifini berish, ularda ekspressivlik, baho munosabatining ifodalanishini tadqiq etish, turli tillarda mavjud neologizmlarni tahlil qilish orqali umumtil yangilik bo'yog'iga ega leksik birliklarga xos nazariy masalalarga yechim topish, yangi ilmiy yutuqlarga erishish imkonini bermoqda.

O'zbek tilshunosligida XX asrda, XXI asrning birinchi choragida paydo bo'lgan neologizmlarni tahlil qilishga doir ilmiy maqolalar mavjud. "O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash"¹ zarurligi XXI asrning birinchi choragi, yana ham aniqrog'i, so'nggi o'n yilda tilimizda shakllangan, boshqa tillardan kirib kelgan neologizmlarni o'rganishga asos bo'lmoqda. Yangi lug'aviy birliklarning leksik-semantik va pragmatik xususiyatlarini mediadiskurs misolida yoritish mazkur diskurs turining jamiyat va til taraqqiyoti dinamikasini aks ettiruvchi informativ hamda ekspressiv diskurs ekanligini, ingliz, rus, o'zbek va boshqa tillarda neologizmlarning yuzaga kelishida mushtarak jihatlar mavjudligini ochib berishga asos bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktyabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-son farmoni. Manba: <https://lex.uz/docs/5058351> (murojaat sanasi: 10.05.2024).

tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari; 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4779-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyoti ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyo tilshunosligida yangi so‘zlar tadqiqi bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlar belgilanib, neologiya va neografiya kabi yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Yangi lug‘aviy birliklarning leksik-semantik, struktur, pragmatik, leksikografik, derivatsion xususiyatlari, abbervoneologizmlar, semantik neologizmlar borasida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Neologizmlar masalasi jahon tilshunosligida P.Kuk, L.Sh.Chen, M.Conboy, V.Adams, J.Ayto, C.Cotter, D.Crystal², rus tilshunosligida G.Kiparisov, M.Zolotareva, A.V.Ziryanova, V.A.Maryanchik, T.V.Salko, E.A.Kolsova, I.V.Levontina S.Rzayeva, N.Isayeva, N.Vaxniskaya, V.Chernyak, B.Golovin, V.Kozireva³, turkiyshunoslikda Sh.H.Qaribova, J.Mamitovlar tomonidan o‘rganilgan⁴.

² Paul Cook C. Exploiting linguistic knowledge to infer properties of neologisms. – Toronto, 2010. – Chen Lee Shiu Chen. Lexical Neologisms in Japanese. https://www.aare.edu.au/data/publications/2002/che02_356.pdf; Conboy M. The Language of Newspapers: Socio-Historical Perspectives. London: Continuum, 2010; Adams V. An Introduction to Modern English Word Formation. – London: Longman, 1987. – P. 240; Ayto J. The Oxford Dictionary of Slang/J. Ayto. – Oxford: Oxford University Press, 1998. – P. 482; Cotter C. News Talk: Investigating the Language of Journalism. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010; Crystal D. Words, Words, Words. – Oxford: Oxford University Press, 2007.

³ Кипарисов Г. Семантические неологизмы: Автореферат дисс. ... канд. филол. наук. – Тамбов, 2011. – 23 с.; Золотарева М. Неологизмы современного русского языка в деривационном аспекте: на материале неологизмов 70-90 годов XX века с глагольными корнями: Автореферат дисс. ... канд. филол. наук. – Тамбов, 2011. – 23 с.; Зырянова А. Функционирование неологизмов-лексем в современном русском языке в семантико-коммуникативном и прагматическом аспектах (на материале средств массовой информации): Дисс. ... канд. филол. наук. – Челябинск, 2006. – 203 с.; Марьянчик В.А. Аксиологическая функция неологизмов медиа-политического дискурса: На материале газетных публикаций начала XXI века: Дисс... докт. филол. наук. – Архангельск, 2003. – 334 с.; Цалко Т.В. Неологизмы – наименования лиц в русской лексикографии и современном узусе: Эволюция семантической характеристики: Дисс ... канд. филол. наук. – Ростов-на-Дону, 2001. – 245 с. Кольцова Е.А. Неологизмы английского языка XXI в. / *ruen Journal of Language Studies, Semiotics and Semantics*, 2017, 8 (3), 604-613. Levontina I. B. Language as an evolution instrument. URL: <https://www.youtube.com/watch?v=dfzCehnmHf8>. Рзаева С. Особенности перевода неологизмов с английского языка на русский (на материале онлайн-газет и социальных сетей): Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Мытищи, 2021; Исаева Н. Новые наименования лиц на рынке труда (структурно-семантический и функциональный аспекты): Автореф. дисс... канд. фил. наук. – Москва, 2010. – С. 9; Вахницкая Н. Роль

O‘zbek tilshunosligida yangi so‘zlarning paydo bo‘lishi, leksikadagi o‘rni, sotsiolingvistik xususiyatlariga oid qarashlar A.Berdialiyev, N.Mahmudov, M.Mirtojiyev kabilar tomonidan tadqiq etilgan⁵. Shuningdek, yangilik bo‘yog‘iga ega leksik birliklar masalasida P.Nazarov, Sh.Abduraimova, H.Dadaboyev, O.Jumaniyozov, U.Qo‘ziyev, S.Nurtoyevlarning tadqiqotlari ahamiyatli⁶. Mazkur tadqiqotlarda o‘zlashma neologizmlar masalasiga asosiy e‘tibor qaratilgan.

So‘nggi yillarda jadal rivojlanayotgan va amaliy ahamiyati bilan alohida e‘tiborga molik soha hisoblanuvchi kompyuter lingvistikasi sohasida ham neologizmlar korpusini yaratish masalasi tadqiq etildi⁷, biroq o‘zbek tilshunosligida neologizmlarning leksik-semantik va pragmatik xususiyatlari monografik planda o‘rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Namangan davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari muvofiq “O‘zbek tilining sistem va antropotsentrik tadqiqi” mavzusi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqot maqsadi mediadiskursda qo‘llangan neologizmlarning til dinamikasi, lisoniy kreativlikdagi o‘rni, yuzaga kelish mexanizmlari, leksik-semantik va lingvopragmatik xususiyatlarini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

neologizmlarning lisoniy tahlili, leksik-semantik va pragmatik xususiyatlari, til dinamikasi, lingvokreativlik, mediadiskurs yuzasidan jahon va o‘zbek tilshunosligida amalga oshirilgan tadqiqotlarni umumlashtirish va tahlil qilish, neologiyaga doir lingvistik tadqiq muammolarini belgilash;

neologizmlarning funksional-semantik xususiyatlarini yoritish;

mediadiskursga xos lisoniy innovatsiyalarning pragmatik funksiyalarini aniqlash;

займствования в создании неологизмов современного немецкого языка (на материале неологизмов 90-х годов XX века): Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Москва, 2013. – 17 с.; Черняк В. Современная языковая ситуация и речевая культура (в соавторстве с В. А. Козыревым). Учебное пособие. – М.: Флинта – Наука, 2012. – 181 с.; Головин Б. Введение в языкознание. – М.: Просвещение, 1977. – 311 с.; Козырева В. и Черняк В.Д. Русская лексикография. – М., 2004.

⁴ Şəbnəm Həsənli-Qəribova. O‘guz qrupu türk dillərində isimlərdə söz yaradıcılığı. – Bakı: Elm, 2017; Мамытов Ж. Неологизмы киргизского языка советской эпохи: Дисс. ... д-ра. филол. наук. – Бишкек, 2002. – 58 с.; Алиева Г.Н. Аббревиатурные неологизмы современного русского языка конца 90-х годов XX - начала XXI века (Семантико-деривационный аспект): Дисс... д-ра филол. наук. – СПб., 2003. – 334 с.

⁵ Бердиалиев А. Ўзбек синхрон социолингвистикаси. – Хўжанд, 2015. – 150 б.; Миртожиев М., Махмудов Н. Тил ва маданият. – Тошкент, 1992. – 110 б.; Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент, 1985. – 199 б.

⁶ Назаров П.Ж. Ўзбек тилига ўзлашган сўзлар хусусида // Хорижий филология, 2019. – Б. 54-58; Абдураимова Ш.К. Сўз ўзлаштириш назарияси ва ўзлаштирмаларнинг вақтли матбуот тилида ўзгара бориши: Филол. фан. номз. дисс... автореф. – Тошкент, 1995. – Б. 12-17; Дадабоев Ҳ. Ўзбек тилида аффиксация усули билан ясалган сифат-терминлар. // Ўзбек тилшунослиги: тараққиёти ва истиқболлари мавзусидаги Республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Тошкент, 2016. – Б. 193-199; Жуманиёзов О. Ўзбек тилидаги герман тиллари ўзлашмалари. – Тошкент: Фан, 1987. – 104 б.; Кўзиёв У.Я. Ўзбек тилидаги изоҳли луғатларда ўзлашма сўзлар тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа док... дисс. автореф. – Фарғона, 2008; Nurtoyev S. Ingliz ommaviy axborot vositalaridagi neologizmlarning o‘zbek tiliga tarjima qilish muammolari: Fil.fan.bo‘yicha falsafa dok. (PhD)...diss. – Toshkent, 2023. – 126 b.

⁷ Yulbarsov O. O‘zbek tili veb korpusi yordamida sohaviy neologizmlar bazasini yaratish: Filol. fan. bo‘yicha falsafa dok... diss. avtoref. – Toshkent, 2025. – 62 b.

neologizmlarda nominativ, ekspressiv, kognitiv, sotsiologik, psixologik, intellektual, baholash kategoriyalari aks etishini lisoniy dalillar asosida yoritish;
semantik neologizmlarning komponent tahlilini berish;
neologizmlarning kalkalash, transkripsiyalash, transliteratsiya qilishni mediadiskursdan olingan misollar asosida yoritish.

Tadqiqot obyekti sifatida 2016-2025 yillarda kun.uz, daryo.uz saytlari, ayrim ingliz va rus mediadiskursida e'lon qilingan materiallardagi neologizmlar tanlangan.

Tadqiqot predmetini mediadiskursdagi neologizmlarning leksik-semantik va pragmatik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyoslash, zidlash, tavsiflash, tasniflash, statistik va komponent tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tilning ijtimoiy va dinamik hodisa sifatidagi o'zgaruvchanligi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, madaniy, maishiy, texnik, texnologik, ilmiy sohalardagi yangiliklarning lisoniy ifodalanishi, leksikadagi eskirish va yangilanish jarayonlari hamda lingvokreativlik masalalari ochib berilgan;

neologizmlarning mediadiskursda informativlik, ekspressivlik, nomlash, intellektual, baholash kabi funksiyalarni bajarishi hamda siyosiy, iqtisodiy, madaniy, maishiy sohalardagi neologizmlarning leksik-semantik xususiyatlari yoritilgan;

o'zlashma neologizmlarning kalkalash, transkripsiyalash, transliteratsiya qilish usullari orqali qabul qilinishi va bu jarayondagi o'ziga xosliklar, o'zlashmalarning bevosita yoki bilvosita qabul qilinishi masalalari ingliz, rus, yapon, o'zbek va boshqa turkiy tillardan olingan misollar asosida dalillangan;

semantik neologizmlarning shakllanishi, so'z ma'nosining taraqqiyoti: torayishi va kengayishi, pragmatik vosita sifatidagi ekspressiv funksiyalari hamda qo'llashdagi kommunikativ muvaffaqiyatsizlikka uchrash holatlari tilshunoslikning tarixiy va zamonaviy mezonlari asosida ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

neologizmlar, okkazonal birliklar, abbreneologizmlar jamiyat tafakkuri taraqqiyoti va lisoniy ijodkorligi mahsuli ekanligi, bunday birliklarning kognitiv, pragmatik tamoyillar asosida tadqiq etilishi, jamiyat taraqqiyotidagi ijobiy va salbiy jihatlarning bevosita leksik sathda aks etishi, mediadiskursdagi neologizmlar adresantlar intellektualligi, hissiyoti, dunyoqarashiga ta'sir etishi yuzasidan olingan xulosalar mediadiskurs ekspressivligini ta'minlash, publitsistik matnlarga xos lisoniy xususiyatlarni aniqlashga imkon berishi ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan;

tadqiqotdan tilshunoslikda leksikologiya, leksikografiya, uslubiyat va pragmalingvistikadagi leksik-semantik, funksional-stilistik, lingvopragmatik jarayonlarni yanada chuqurroq o'rganishda foydalanish mumkinligi ko'rsatilgan;

dissertatsiyada tadqiq qilingan materiallar XXI asrning birinchi choragida dunyo tillari va o'zbek tilida leksik sathdagi o'zgarishlar xususida bilim berishda, darslik va o'quv qo'llanmalarining mukammallashuvida hamda pragmalingvistika, neologiya, leksikografiya, leksikologiya muammolarini hal qilishda nazariy manba bo'lib xizmat qilishi belgilangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi olib chiqilayotgan masalalarning aniqligi, g'oyalarning lingvistik qonuniyatlarga mosligi, tadqiqot jarayonida olib borilgan tahlillarning nazariy asosga ega ekanligi, muammoni tadqiq etishda ilmiy-nazariy manbalarga tayanilganligi, erishilgan ilmiy natijalarning amaliyotga tatbiq etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mediadiskursda qo'llangan neologizmlar misolida til dinamikasi va o'zgaruvchanligi haqidagi qarashlar lisoniy innovatsiyalarning leksik-semantik va pragmatik xususiyatlari haqida keng qamrovli ma'lumotlar berishi, leksikologiya, pragmalingvistika yo'nalishini yangi nazariy ma'lumotlar bilan boyitishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Dissertatsiyaning amaliy ahamiyati shundan iboratki, tadqiqot natijalari leksikologiya, leksikografiya, pragmalingvistika masalalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari, darsliklar, monografiyalar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratishda foydalanish uchun nazariy manba bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot natijalaridan filologiya va jurnalistika fakultetlarida bakalavriat yo'nalishida "Hozirgi o'zbek adabiy tili", "Media tili va uslubi", "Leksikografiya masalalari" hamda lingvistika (o'zbek tili) magistratura yo'nalishida tanlov fanlarini o'qitishda keng foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mediadiskursda neologizmlarning leksik-semantik va pragmatik xususiyatlari tahlillari asosida chiqarilgan xulosa va olingan natijalardan:

tilning ijtimoiy va dinamik hodisa sifatidagi o'zgaruvchanligi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, madaniy, maishiy, texnik, texnologik, ilmiy sohalaridagi yangiliklarning lisoniy ifodalanishi, leksikadagi eskirish va yangilanish jarayonlari hamda lingvokreativlik masalalari ochib berilgan o'rinlardan Davlat grantlari dasturlari doirasida 2022-2024-yillarga Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida amalga oshirilgan "Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – o'zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish" bo'yicha IL-402104209 raqamli amaliy loyiha doirasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 1-maydagi № 01/4-1815-sonli ma'lumotnomasi). Natijada amaliy loyiha til taraqqiyoti tadqiqotlarga doir yangi nazariy qarashlar bilan boyitilgan;

neologizmlarning mediadiskursda informativlik, ekspressivlik, nomlash, intellektual, baholash kabi funksiyalarni bajarishi hamda siyosiy, iqtisodiy, madaniy, maishiy sohalaridagi neologizmlarning leksik-semantik xususiyatlari yoritilgan hamda o'zlashma neologizmlarning kalkalash, transkripsiyalash, transliteratsiya qilish usullari orqali qabul qilinishi va bu jarayondagi o'ziga xosliklar, o'zlashmalarning bevosita yoki bilvosita qabul qilinishi masalalari ingliz, rus, yapon, o'zbek va boshqa turkiy tillardan olingan misollar asosida dalillangan fikr va xulosalardan 2023-2024 yillarda Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan chet tillari institutida bajarilgan KA107/2023-2024 raqamli "Erasmus+ mobility program" loyihasi doirasida foydalanilgan (Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan

chet tillari institutining 2025-yil 28-apreldagi 933-03-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur loyiha neologizmlar va jamiyat taraqqiyoti, neologizm turlari haqidagi ma'lumotlar borasida ilmiy-nazariy va amaliy qarashlar kengaytirilgan;

semantik neologizmlarning shakllanishi, soʻz ma'nosining taraqqiyoti: torayishi va kengayishi, pragmatik vosita sifatidagi ekspressiv funksiyalari hamda qoʻllashdagi kommunikativ muvaffaqiyatsizlikka uchrash holatlari tilshunoslikning tarixiy va zamonaviy mezonlari asosida ochib berilgan va isbotlangan oʻrinlardan Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Oʻzbekiston–24” ijodiy birlashmasi “Oʻzbekiston” teleradiokanalida 2024-2025 yillarda efirga uzatilgan “Ta’lim va taraqqiyot”, “Til – millat koʻzgusi”, “Axborot texnologiyalari va kreativ industriya boʻyicha koʻrgazma” dasturlari ssenariylarini yozishda foydalanilgan (Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Oʻzbekiston–24” ijodiy birlashmasining 2025-yil 6-maydagi 05-09-613-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ommaviy axborot vositalari tilida paydo boʻlayotgan yangi soʻzlar va iboralar haqidagi fikrlar bilan koʻrsatuvlarning ilmiylik, tomoshaboplik jihatlari ortgan.

Tadqiqot natijalarning aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 3 ta respublika hamda 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma'ruza koʻrinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarning eʼlon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha 15 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, ulardan 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovalardan iborat boʻlib, 126 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiyaning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiya tuzilishi boʻyicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “Mediadiskurs va neologizmlar tadqiqining ilmiy-nazariy asoslari” deb nomlangan boʻlib, uning birinchi paragrafi “Neologizmlar, jamiyat taraqqiyoti va lingvokreativlik” masalalariga bagʻishlangan.

Har bir til murakkab va doimiy ravishda oʻzgarib turadigan dinamik tizimdir. Shuning uchun ham, lingvistik adabiyotda markaziy masalalardan biri – bu lisoniy oʻzgaruvchanlik masalasidir. Bu doimiy xususiyat hisoblanib, mazkur dinamiklik xususiyatining eng yorqin dalili – bu til nomlash fondining doimiy ravishda yangi birliklar bilan boyitib borilishidir. Bu jarayon tilning rivojlanishini va birinchi

navbatda uning leksik-semantik tizimining evolyutsiyasini belgilaydi. Tabiiyki, jamiyat hayotida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, ayniqsa, leksik-semantik tizimda sezilarli darajada aks etadi.

Yangi leksikaning yangiligi til lug'at tarkibidagi tarixiy-an'anaviy qatlam yoki eskirgan so'zlar qatlamiga solishtirilganda yaqqol ko'rinadi. Yangi so'zga ekspressivlik – yangilik bo'yog'i xos bo'ladi. Yangi so'z birinchi duch kelgan kishiga, ayniqsa, eski til leksik me'yori bilan tanish keksa avlodga g'ayritabiiydek tuyuladi. Bu hol lingvistikada leksik idiosinkraziya deb yuritiladi. Bu termin, avvalo, ayrim so'zlarga (leksemalarga) nisbatan ochiq-oydin antipatiya holatlarini bildiradi, ammo uni boshqa til holatlarini tavsiflash uchun ham qo'llash mumkin. Bunday ma'noda idiosinkraziya sifatida ikkita hodisani atash mumkin:

a) gapiruvchining ma'lum bir til vositasiga nisbatan emotsional ravishda motivlangan salbiy munosabati;

b) til purizmining bir turi sifatida qaraladi⁸. Mamlakatimizda ham neologizmlarga ijobiy va salbiy qarashlar mavjud. Aslida tilda kechayotgan har bir jarayon jamiyat taraqqiyoti, fikriy riojlanishi, til siyosati, tillararo aloqaga bog'liq tarzda yuz beradi. Ayrim davrlarda hissiy-emotsional holatlarning kuchayishi natijasida tilda hali yashab turgan so'zlar o'rniga yangi leksemalar majburan kiritishga harakat qilingan, ayrim davrlarda esa hukmron mafkura targ'iboti ostida til fonetik, morfologik va leksik xususiyatlariga begona bo'lgan o'zlashmalarning majburan kiritilishi hollari ham kuzatilgani sir emas. Har ikki holatda ham jamiyat va vaqt kategoriyalari leksemalarning yashab qolishi yoki iste'moldan chiqishini belgilab bergan. Bugungi kunda ham o'zlashma neologizmlar shiddat bilan paydo bo'layotgan bir davrda neologizm leksemalarning ommalashuvi yoki umum iste'molga qabul qilinmasligi vaqt va jamiyat fikri, dunyoqarashi bilan uzviy bog'liq. Mazkur dissertatsiyada esa ushbu dinamik jarayon, leksikaning boyish va o'zgarish jarayonlarini obyektiv ilmiy baholashga harakat qilinadi.

Tilning ijtimoiyligi va dinamik xarakterini ko'rsatuvchi sath – leksika hamda undagi ochiq sistemaga xos xususiyatlarni aks ettiruvchi muhim birliklar tilda yangilik maqomiga ega bo'lgan neologizmlardir. Neologizm – bu tildagi ma'lum modellarga muvofiq yaratilgan yoki muayyan tilga boshqa tildan o'zlashgan yangi so'z. Bu atamaning o'zi birinchi marta 1735-yilda fransuz tilida paydo bo'lgan.

Tilda neologizmlarni yaratish murakkab, ko'p qirrali jarayon hisoblanadi. Bugungi kunda dunyodagi barcha tillarda neologizmlar miqdori keskin ortib bormoqda. Nafaqat o'zbek tili, balki xalqaro til maqomiga ega bo'lgan rus, ingliz tilidagi mediadiskursni kuzatganimizda yangi so'zlar, iboralar, qisqartmalar, semantik neologizmlar miqdorining keskin oshganligini kuzatamiz. Bu, albatta, jamiyatning jadal taraqqiy etayotganini ham ko'rsatadigan omildir. Aslida neologizmlar hamma davrlarda ham bo'lgan. Tildagi eskirish va yangilanish jarayonlari muntazam davom etadigan jarayondir. Ayniqsa, bir ijtimoiy tuzumdan boshqasiga o'tish jarayonida til leksikasida dinamika kuchayishi hamda yangi qatlam muayyan tizimni tashkil eta boshlashi ma'lum.

⁸ Чорич Б. Идиосинкразия как принцип языковой политики // https://ozlib.com/972182/sotsium/chorich_idiosinkraziya_printsip_yazykovoy_politiki

Neologizmlar barcha til uslublarida ham qo'llanishi mumkin, ammo axborot eng ko'p qo'llanadigan va ommaga yetib boradigan kanal ham, albatta, media vositalari, mahsulotlari sanalgani uchun, mediadiskurs turli ijtimoiy qatlamlar bilan bir xilda, ommaviy muloqot shakli va jarayoni ekanligi uchun nutqning ushbu turida neologizmlarning kirib kelishi hamda jamiyatga yetib borishi faol hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, hozirgi texnika va texnologiya asrida eng qimmatbaho narsa bu axborotdir. U turli xil shakllarda: rasm, grafik, diagramma yoki texnikada amalga oshadigan barcha ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin. Axborot texnologiyalari insoniyat taraqqiyotining boshqa davrlarida ham, jumladan, o'tgan asrda ham mavjud bo'lgan, ammo hozirgi zamon axborotlashgan jamiyatining o'ziga xos xususiyati shundaki, sivilizatsiya tarixida birinchi marta bilimlarga erishish va yangi axborot, yangi ma'lumot, bilim yaratishga sarflanadigan kuch, energiya xomashyo materiallar va moddiy iste'mol buyumlariga sarflanadigan xarajatlardan ustunlik qilmoqda, ya'ni axborot texnologiyalari mavjud yangi texnologiyalar orasida yetakchi o'rinni egallamoqda. Axborot texnologiyalarining hozirgi zamon taraqqiyoti, yutuqlari fan va inson faoliyatining barcha sohalarini axborotlashtirish zarurligini ko'rsatmoqda hamda mamlakatimizda ham faol axborotlashish jarayoni ketmoqda. Neologizmlarning yuzaga kelishi va tarqalishi aynan shu jarayon bilan ham aloqador bo'lib, bu ekstralingvistik omillar sirasiga kiradi.

Tilshunoslikda neologizmlar umumtil (lisoniy) va mualliflik yoki individual-stilistik turlarga ajratiladi⁹. Umumtil neologizmlari, asosan, yangi predmetni, tushunchani nomlash uchun yaratiladi. Ular dastlab nafaol lug'at zaxirasiga kiradi va sekin-asta faollashib, lug'atlarda qayd etiladi, aholi orasida ommalashishi mumkin. Neologizm aslida nisbiy tushuncha.

So'z yangilik sifatini saqlab qolguncha neologizm bo'lib qoladi. Masalan, 30 yil avval *kompyuter, disk, monitoring, mobil aloqa, internet kabi* so'zlar mamlakatimizda neologizm maqomida bo'lgan, hozir bu so'zlar o'zbek adabiy tilining leksik tarkibiga kiradi va faol leksemalardan sanaladi. Olti jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati"ga nazar tashlar ekanmiz, bugungi kunda ham yangilik bo'yog'ini to'liq yo'qotmagan ko'plab so'zlarning o'rin olganini kuzatdik. *Bloger, kriptovalyuta, internet, koronavirus, investitsiya, investor, portfolio, megabayt, kiber, kiberxavfsizlik, kiberjinoyat, sayt, offlayn, onlayn, masofaviy, raqamli, raqamlashtirish, elektron, gadjet, android, planshet, server, motivatsiya, biometrik, super, market, mega, demokratlashtirmoq* kabi qator so'zlar shular jumlasidan bo'lib, avvalgi besh jildli lug'atda ifodalanmagan edi. Demak, so'z ifodalagan tushuncha dolzarb bo'lsa va uni ataydigan so'z boshqa so'zlar bilan yaxshi bog'langan bo'lsa, so'z tez orada neologizm bo'lishdan to'xtaydi.

So'nggi o'n yilda mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarning faollashuvi, so'z erkinligi, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn axborot almashinuvining kuchayishi, xorij bilan hamkorlik kuchaygan bo'lsa, jahonda ham rivojlangan davlatlarda texnologiyaning soniya sayin jadal taraqqiy etishi, axborot oqimining

⁹ Брагина А.А. Неологизмы в русском языке. – М., 1973. – С. 18.

yana ham kengroq masshtabda tarqalishi, 2019-2020 yillarda pandemiya davrida jiddiy o'zgarishlarning sodir bo'lgani ayni haqiqat. Bu obyektiv sabablar barcha tillar leksikasida o'z ifodasini topdi va bundan o'zbek tili ham istisno emas.

Ilmiy manbalarda neologizmlarning bir necha ko'rinishlari qayd etilgan. Jumladan, "O'zbek tili leksikologiyasi"da neologizmlar hosil bo'lishiga ko'ra quyidagicha guruhlab ko'rsatiladi:

- 1) o'z til materiali asosidagi neologizmlar;
- 2) o'zga til materiali asosidagi neologizmlar;
- 3) o'zlashma neologizmlar¹⁰.

Ommaviy axborot vositalari matnlarining lug'at tarkibi adabiy tilning eng ommabop uslubiy tizimini aks ettiradi, turli xil ma'lumotlar tufayli paydo bo'ladigan barcha yangiliklarni dinamik ravishda aks ettirib boradi. Aynan shuning uchun ham bu uslubda neologizmlar miqdori boshqa uslublarga qaraganda yuqori hisoblanadi. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalari matnlari, reklama va onlayn-kommunikatsiyalar orqali neologizmlar qo'llanishi faollashib bormoqda.

Yangi so'zlar hozirgi o'zbek adabiy tilida va boshqa tillarda quyidagi yo'llar bilan yaratilmoqda:

Tilning mahsuldor so'z yasash modellari asosida. Masalan, o'zbek tilida -chi, -la affikslari tilning butun tarixiy taraqqiyoti jarayonida eng faol va mahsuldor morfemalar sanalgan hamda bugungi kunda ham yangi yasalmalar aynan shu affikslar ulushiga to'g'ri kelmoqda: *kompyuterchi, damaschi, ITchi, skanerlamoq, urg'ulamoq, ochiq'lamoq* kabi.

Ingliz tilida -er affiksi bilan so'nggi yillarda ko'plab neologizmlar yaratildi. Masalan: *Blogger* – blog yozuvchisi, *vlogger* – video blog yurituvchi, *streamer* – onlayn o'yinlarni jonli efirda namoyish qiluvchi, *influencer* – ijtimoiy tarmoqlarda ta'sir o'tkazuvchi shaxs, *clicker* – kompyuter sichqonchasini tez-tez bosuvchi, *tinderer* – tinder dasturining faol foydalanuvchisi, *gamer* – kompyuter o'yinlarini o'ynaydigan kishi, *texter* – SMS xabarlarini tez-tez yozuvchi, *tweeterer* – twitterda faol bo'lgan foydalanuvchi, *binger* – serial filmlarni bir o'tirishda ko'rib chiquvchi kabilar.

So'zlarni qo'shish asosida (qo'shma so'zlar):

Zoom fatigue – Zoom dasturini uzoq vaqt ishlatishdan kelib chiqadigan charchoq, *self-care* – o'ziga g'amxo'rlik qilish, *deepfake* – sun'iy intellekt yordamida yaratilgan soxtalashtirilgan video, *clickbait* – odamlarni internet xabariga kirishga majbur qiladigan sarlavha, *mansplaining* – erkaklar tomonidan ayollarga tushuntirishlarni berish, *gaslighting* – biror kishini o'z fikrlariga shubha qilishga majbur qilish.

Qisqartma so'zlarni yaratish asosida ingliz tilida: LOL – Laughing Out Loud (kulib yuborish), OMG: Oh My God (Xudo deb qasam ichish), BRB – Be Right Back (tezda qaytaman), AFK – Away From Keyboard (klaviaturadan uzoqda), IMO – In My Opinion (mening fikrimcha), TTYL – Talk To You Later (keyin gaplashamiz), DM – Direct Message (to'g'ridan-to'g'ri xabar), IRL – In Real Life (haqiqiy hayotda), FOMO: Fear Of Missing Out (o'tkazib yuborishdan qo'rqish),

¹⁰ Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б.43.

YOLO – You Only Live Once (bir marta yashaysiz), SMS – Short Message Service, MMS – Multimedia Messaging Service, Wi-Fi – Wireless Fidelity, GPS – Global Positioning System, SIM – Subscriber Identity Module kabilar.

Rus tilida: ЕГЭ – Единый государственный экзамен (Unified State Exam), МВД – Министерство внутренних дел (Ministry of Internal Affairs), ФСБ – Федеральная Служба Безопасности (Federal Security Service), Госдума – Государственная Дума (State Duma), СМИ – Средства массовой информации (Mass Media) kabilar.

O‘zbek tilida: MTT – maktabgacha ta’lim tashkiloti, NNT – nodavlat notijorat tashkilot, MCHJ – mas’uliyati cheklangan jamiyat, MTRK – milliy teleradiokompaniya kabi.

3. So‘zlarning yangi gibrid modellarini yuzaga keltirish asosida: *call markaz, e-imzo, e-hukumat* kabi.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafi “Tilshunoslikda neologizmlar talqini va tadqiqi” deb nomlangan. Ushbu paragrafda jahon, rus, turkiy tilshunoslik va o‘zbek tilshunosligida neologizmlar borasida amalga oshirilgan tadqiqotlar tahlil qilingan. Neologizmlarning paydo bo‘lish omillari, ularning lug‘atlarga kiritilish asoslari, kompyuter lingvistikasiga oid masalalari ingliz olimi Pol Kuk tomonidan atroflicha tahlil qilingan. Jumladan, Pol Kuk yangi so‘zning muvaffaqiyatini FUDGE omillari asosida aniqlaydi:

Frequency: So‘zning ishlatilish faolligi.

Usage: So‘zning qo‘llanilish doirasi kengligi.

Duration: So‘zning ishlatilish vaqti davomiyligi.

Growth: So‘zning qo‘llanilishining o‘sishi yoki kamayishi.

Exposure: So‘zning qanchalik ko‘p odamlarga tanishligi.

Ushbu omillar birgalikda bir so‘zning tilda yashab qolish ehtimolini baholash uchun ishlatilishi mumkinligini ta’kidlaydi.¹¹

Bobning uchinchi paragrafi “Mediadiskurs til dinamikasini aks ettiruvchi obyekt sifatida” deb nomlanadi.

Diskurs termini ikki xil: tor va keng ma’noda tushuniladi. Keng ma’noda tushunilganda diskurs turli xil kanallar orqali uzatiladigan, verbal va noverbal vositalar orqali ifodalanadigan semiotik jarayonni ifodalaydi. Tor ma’noda esa faqat tilshunoslik obyektini sifatida qaraladi. Demak, semiotik nuqtayi nazardan, diskurs tilshunosligi bu til amaliyoti lingvistikasidir.¹²

Tilshunoslikda “diskurs” atamasi birinchi marta amerikalik olim Z.Harris tomonidan 1952-yilda nashr etilgan “Diskurs tahlili” maqolasida qo‘llangan¹³. Tilshunoslikda diskursning bir qator turlari farqlanadi. Bu farqlanish diskurs qo‘llanadigan uslub, soha bilan bog‘liq. Sababi – ommaviy muloqot, so‘zlovchi va tinglovchi orasidagi nutqiy muloqot jarayoni turli doiralarda turli qoida va

¹¹ Paul Cook C. Exploiting linguistic knowledge to infer properties of neologisms. – Toronto, 2010. – P. 34.

¹² Скребцова Т.Г. Лингвистика дискурса: структура, семантика, прагматика. Курс лекций. – М.: Издательский дом ЯСК, 2020. – С.6.


¹³ Harris Z. Discourse analysis // Language, Vol. 28, No. 1. (Jan.-Mar.,1952), pp. – 1-30: <https://www.jstor.org/stable/409987>

an'analarga, ssenariylarga, rollarga amal qilishni talab etadi. Jumladan, pedagogik diskurs, tibbiy diskurs, sud diskursi, badiiy diskurs, soʻzlashuv diskursi, maishiy diskurs, ilmiy-ommabop diskurs va hokazolar oʻziga xos muloqot jarayoni va an'anasini taqozo qiladi. Bu nutq uslublaridan ham kengroq tushunchani ifoda etadi. Mediadiskurs ham shulardan biri hisoblanadi.

Aslida media komponenti lotin tilidagi *medium* soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, lugʻaviy maʼnosi – “vosita”dir. Hozirgi kunda mazkur soʻz aloqa vositalarini, maʼlumot uzatish usullarini, shuningdek, ular tomonidan yaratilgan muhitni (ommaviy axborot maydonini) oʻz ichiga oladigan keng tushunchani ifodalamoqda. Media ham soʻz, ham soʻz komponenti sifatida bugungi kunda faollashgan birlik sanaladi hamda turli tillarda quyidagi birliklar tarkibida kuzatilmoqda, neoleksemalarni yaratishda, yangi, zamonaviy tushunchalarni ifodalashda faol ishtirok etmoqda. Masalan, *media* komponenti ingliz tilida *media personality, media empire, media speculation, media scandal, media coverage, media interview, media politics media strategy* kabi oʻnlab birikmalar tarkibida, rus tilida *медиареальность, медиарынка, медиаотрасль, медиалогия, медиакультура, медиакратия, медиаактивы, медиакомпания, микст-медиа, медиа-менеджер, медиабаер медиамагнат, медиа-брокер, медиабизнес, медиапланирование, медиаплан, медиасоюз, медиа-кит, медиаимперия, медиаобеспечение, медиапрограмма, медиапродукт, медиатека, медиа-война, медиасообщество, медиа-ресурс, медиа-селлер* kabi qirqaqa yaqin neoleksemalar mazkur komponent bilan yasalgan va faol qoʻllanmoqda.

Oʻzbek tilida ham media soʻzi soʻnggi oʻn yilda neologizm maqomida boʻlsa ham, bugungi kunda 6 jildli “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” dan oʻrin oldi. Bu soʻz ishtirokida yasalgan medamatn, mediasavodxonlik, mediataʼlim kabi neologizmlar ham oʻrin egallab, doimiy leksika qatoridan joy oldi. *Mediadiskurs* soʻzi hali mazkur lugʻatdan oʻrin olmagan.

Mediadiskursning jamiyat hayotidagi oʻrnini quyidagi chizmada ifodalashimiz mumkin (1-rasm):



1-rasm. Mediadiskursning jamiyat hayotidagi oʻrni

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Mediadiskursdagi neologizmlarning leksik- semantik tasnifi va komponent tahlili**” deb nomlanadi. Bobning birinchi fasli “Neologizmlarning leksik-semantik tasnifi va tavsifi” deb atalgan. Mazkur paragrafda mediadiskursda qo‘llangan neologizmlar mavzuiy guruhlariga ajratilgan holda tahlil qilingan.

Ijtimoiy-siyosiy sohadagi neologizmlar. Ijtimoiy-siyosiy leksika bu – siyosat va xalqaro munosabatlar (diplomatiya)ga, mafkuraviylik xususiyatiga ega bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, ma’naviy-ma’rifiy, falsafiy sohalarga aloqador tushunchalarni ifodalovchi hamda ijtimoiy-siyosiy kommunikatsiyada faol ishtirok etadigan so‘z va birikmalardan iborat lisoniy tizim¹⁴ hisoblanadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda demokratiyaga o‘tish, liberallashtirish davrida turli ijtimoiy-siyosiy g‘oyalar, boshqaruv organlari, ichki va tashqi siyosatga oid o‘nlab neologizmlar iste’molga kirmoqda. Bu neologizmlarning ayrimlari so‘z, ba’zilari birikma, boshqalari qisqartma so‘z ko‘rinishiga ega. Siyosiy sohadagi neologizmlar ichki yoki tashqi siyosatga, boshqa davlatlar siyosatiga oid bo‘lishi mumkin. Ularning bir qismi tilning o‘z ichki imkoniyatlari asosida hosil qilingan so‘zlardan iborat bo‘lsa, bir qismi o‘zlashma neologizmlar qatoriga kiradi. *Harakatlar strategiyasi, yo‘l xaritasi, otashkesim, impichment, rokirovka, sektor, quyi palata, yuqori palata, siyosiy elita, Kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, ombudsman, bolalar ombudsmani, yagona darcha, xalq qabulxonasi, portal, liberallashtirish, call-markaz* kabilar shular jumlasidandir.

Ingliz tilidagi ijtimoiy-siyosiy neologizmlarni tahlil qilgan izlanuvchilar ularning aksariyati so‘zlarni qisqartirgan holda qo‘shish usuli bilan yasalganligini ta’kidlashadi. Masalan: *Clintipathy (Clinton antipathy), feminocracy (feminine meritocracy)* yoki xalq tilidagi so‘zlar yoki so‘zlarning komponentlarini birlashtirish orqali: *frenemy (friend+enemy), shero (she+hero)* kabi. Shuningdek, klassik tillar: lotin va grek tillaridagi asos va affiks morfemalaridan foydalanish orqali sun’iy so‘zlar yaratish orqali: *Trumpism, Obamacare, Unvironmental;* avvaldan mavjud so‘zlarning ma’nosini qayta talqin qilish orqali – *cancel culture, denial, hater* kabi.

Rus tilida ham ijtimoiy-siyosiy neologizmlar so‘nggi 10 yillikda anchagina kuzatiladi. Rus tilidagi siyosiy soha leksikasiga oid tadqiqotlar bu borada muayyan yasovchi qismlarning faollashgani, qisqartmalarning miqdori ortganini ko‘rsatadi. Masalan, *пост- (постперестроечный), после- (послеавгустовский, послеоктябрьский, послекризисный), анти- (антиармейский, антиглобализм, антигубернаторский), контр- (контрперестройка, контрреформа, контртерро-ристический), раз-/рас- (разблокировать, разгосударствление, расчеловечи-вание), не- (неплательщик, негражданин, недемократ, недоверие, несогласие), про- (прозападный, прокоммунистический, прокремлевский, пролобировать), псевдо- (псевдodemократия,*

¹⁴ Шаропова Р. Ж. Ўзбек тили ижтимоий-сиёсий терминларининг семантик-структур хусусиятлари ва лексикографик талқини: Филол. фанл. бўйича фалс. докт. ... дисс. автореф. – Қарши, 2019. – Б.12.

псевдопатриот, псевдорыночный, псевдосоциализм, псевдосуверенитет), квази- (квазидемократизм, квазиконституционализм, квазипарламентаризм), лже- (лжедемократы, лжекоалиция, лжепатриоты), ре- (ресоциализация, реструктуризация, реформирование, рефинансирование, реинвестиция), (со-: согласие, сообщество, сопатриоты, сосуществование) kabi bir qator yasalmalar shular jumlasidandir.

Madaniyat va san'at, shou-biznes sohasidagi neologizmlar. *Blokbaster* so'zi ingliz tilidagi *blockbuster* so'zidan olingan bo'lib, dastlab Ikkinchi jahon urushi davrida kuchli portlovchi bombalarni (binolarni butunlay vayron qiluvchi bomba) ma'nosini ifodalash uchun ishlatilgan. So'zning o'zi *block* (uy bloki) va *buster* (buzuvchi) so'zlarining birikmasidan hosil bo'lgan. Keyinchalik so'z ma'nosi kengayib, kino, adabiyot, o'yinlar va boshqa ko'ngilochar sohalarda katta muvaffaqiyat qozongan, tomoshabinlar yoki o'quvchilar tomonidan keng qamrab olingan yirik loyihalarni tasvirlash uchun ishlatila boshlangan. Jumladan, kino san'atida katta byudjetli, yulduzli aktyorlar ishtirokidagi, katta daromad keltiruvchi filmlar (masalan, "Avengers", "Avatar") ga nisbatan, adabiyotda bestseller kitoblar (masalan, J.K. Roulingning "Garri Potter" seriyasi)ga nisbatan, katta sotuvlar ko'rsatkichiga erishgan videoo'yinlar (masalan, "Grand Theft Auto" seriyasi), umuman, ko'ngilochar, katta auditoriyani jalb qiluvchi va katta daromad keltiruvchi har qanday loyihaga nisbatan qo'llanadi. Mazkur so'z semantik jihatdan quyidagi ma'no qirralariga ega (1-jadval).

1-jadval

Madaniyat va san'at, shou-biznes sohasidagi neologizm

Blokbaster	O'ta muvaffaqiyatli
	Shov-shuvga sazovor bo'lgan
	Noodatiy
	Katta byudjetni jalb qilgan
	E'tirofqa sazovor bo'lgan
	Yuqori baholangan
	Faqat ijobiy sifatlarga ega

Bu so'z o'zbek mediadiskursida ham kuzatiladi. Masalan: *Deyarli 10 yil o'tgach, aktyor yana blokbasterda o'ynashga qaror qiladi va yangi "O'rgimchak odam"ning aktyorlar tarkibiga qo'shiladi.* (daryo.uz.18.04.2024).

Internet va ijtimoiy tarmoqlarga oid neologizmlar.

Feyk – (inglizcha *fake* – "soxta, yolg'on") so'zi ingliz tilidan kirib kelgan va o'zbek tilida asl nusxaga o'xshash, ammo haqiqiy bo'lmagan narsalarni ifodalash uchun ishlatiladi. *Avvalroq Soliq qo'mitasi raisi nomidan Telegram orqali feyk xabarlar yuborilayotgani aytilgan edi.* (daryo.uz. 21.10.2024) Feyk – bu dezinformatsiya hisoblanadi.

Feyk so'zi o'zbek tilida, asosan, yolg'on xabar ma'nosida qo'llansa ham, ingliz va rus tillarida quyidagi semalari mavjud:

1. Haqiqatga mos kelmaydigan, qalbakilashtirilgan yoki soxta narsa.
2. Chalg'ituvchi yolg'on xabarlar.

3. Mahsulotlarining qalbaki nusxalari (masalan, soxta brend kiyimlari yoki soxta telefonlar).

4. Ijtimoiy tarmoqlarda yolgʻon profil yoki akkauntlar.

5. Odamlarni chalgʻitish yoki firibgarlik qilish maqsadida qoʻllanadigan soxta narsalar.

Iqtisodiyot, ishlab chiqarish, savdo, biznes va boshqa sohalarga oid neologizmlar.

Oʻzbek tili lugʻat fondida iqtisodiyot, savdo, ishlab chiqarish va biznes bilan bogʻliq *raqamli iqtisodiyot, elektron raqamli imzo, subsidiya, moliyaviy piramida, e-auksion, startap, brend, marketpleys, onlayn bozor, onlayn savdo, kargo, investitsiya, pay, franshiza, broker, brifing, distribyutor, diler, demping, inflatsiya, import, lobbi, marketing, menejer, islom moliyasi, kredit, plastik karta, ekobozor, yashil iqtisodiyot, kimoshdi, kriptovalyuta, brend, marketolog, mikroqarz, keshbek, brend* kabilarni misol qilishimiz mumkin.

Boshqa leksik-semantik gurhlarga oid neologizmlar tarkibida esa belgi ifodalovchi, ishlab chiqarish bilan bogʻliq, qishloq xoʻjaligi, sport, salomatlikni saqlash, avtomobilsozlik, ijtimoiy-maishiy hayot, taʼlim jarayon, sud-huquq tizimi, bino-inshootlar, ommaviy axborot, kasb-hunarga oid neologizmlar tahlil qilingan.

Bobning beshinchi paragrafi “Semantik neologizmlarning komponent tahlili”ga bagʻishlangan boʻlib, semantik neologizmlar haqida gapirganda, ilmiy adabiyotlarda soʻzlarda yangi maʼno qirralari paydo boʻlish mexanizmlari muammosining aniq yechimi yoʻqligini taʼkidlash kerak. Olimlar koʻpgina hollarda semantik neologizmlar hosil boʻlish jarayoni soʻzlarni qayta talqin qilish, tilning mavjud leksik vositalarini ular uchun yangi boʻlgan hodisalar va tushunchalarni belgilash uchun ishlatishdan iboratligini taʼkidlaydilar, yaʼni soʻz birliklarining hosil boʻlgan maʼnolari soʻz ichidagi semantik derivatsiya orqali hosil boʻladi.

Oʻzbek tilida semantik neologizmlar koʻproq sifat soʻz turkumiga toʻgʻri kelmoqda. Jumladan, *yashil, sariq, qizil, shaffof* sifatlari soʻnggi yillarda yangi maʼno qirralari bilan boyidi. Masalan: “*Yashil*”, “*sariq*” va “*qizil*” zonalar: *koronavirus yuqtirganlikda gumon qilinganlarni karantin majmuasida saqlashga oid nizom tasdiqlandi (27.04.2020) Qashqadaryo “yashil” hudud. Viloyat karantindan chiqmoqda (6.05.2020) Bugungi kunda 40 ta tuman (shahar) “qizil”, 45 tasi “sariq” hudud sifatida qolmoqda. Eng tashvishlisi, oʻtgan 10 kunda aholi oʻrtasida kasallanganlar soni ham oshib bormoqda. (26.05.2020)*

“Mediadiskursda neologizmlarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari” deya nomlangan dissertatsiyaning uchinchi bobi uchta paragrafdan iborat. Birinchi paragrafda neologizmlarning funksiyalari haqida soʻz boradi. Neologizmlarning funksiyalari ularning paydo boʻlish sabablari bilan chambarchas bogʻliq, chunki soʻz biror bir funktsiyani bajarish uchun tugʻiladi va bu funktsiyani bajarishga ehtiyoj qolmagandan keyin, avval lugʻatning nafaol zaxirasiga kiradi, soʻng bir necha yoki koʻp yillardan keyin u yoʻqolishi yoki boshqa funktsiyalarni bajarib qayta tirilishi mumkin. Tilda neologizmlar bir nechta funktsiyalarni bajaradi:

1. Nominativ funksiya. Tadqiqotlarda neologizmlarning paydo bo'lishining birinchi sababi – yangi buyumlar, hodisalar va tushunchalarni nomlash yoki mavjud bo'lgan buyumlar, hodisalar va tushunchalarni qayta nomlash zaruriyati, ikkinchi sabab – qulaylik, ya'ni qulay bir so'zli atama eski ko'p so'zli atama o'rniga qabul qilinishi, uchinchi sabab – yangi ekspressiv ifoda vositalarini yaratishga intilish ekanligi ta'kidlanadi. Demak, nominativ funktsiyani bajaradigan yangi so'zlar faqat yangi reallikni nomlash uchun emas, balki ma'lum bo'lgan tushunchalarni qayta nomlash uchun ham kerak.

2. Til lug'at zaxirasini boyitish. Neologizmlarning ikkinchi funksiyasi tilning lug'at tarkibini boyitish funksiyasi hisoblanadi.

O'zlashma neologizmlardan ichki imkoniyatlar asosida yangi leksemalar hosil qilinadi. Bunda affikslar va yordamchi vositalar muhim rol o'ynaydi. Jumladan, o'zbek tilida fe'l yasovchi affikslardan eng faoli *-la* affiksi hisoblanadi va u XI asrda ham so'z yasashda faol ishtirok etgan. Bugungi kunda ham tilimiz leksikasini boyitishda davom etmoqda.

